

Namangan viloyatida oliy ta'lim tizimi

(2019-2020 o'quv yili boshida)

Bugungi kunda ta'lim inson faoliyatini barcha sohalariga yangi texnologiyalarni joriy etish, raqobatbardoshlikni oshirish, turmush darajasini ko'tarishning muhim shartiga aylanib bormoqda.


Hozirgi kunda yangi bilimlarni amalda qo'llay oladigan, muayyan kasb sohasidagi innovatsion imkoniyatlar ko'lamini tushuna oladigan kadrlarga talab yuqori. Bular nafaqat joriy xo'jalik va ishlab chiqarish masalalarini malakali hal qiladigan, balki to'g'ri qaror qabul qiladigan tahliliy qobiliyatga ega, yuqori darajali mutaxassislar bo'lishi lozim. Oliy ta'lim tizimi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta'minlaydi. Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash oliy o'quv yurtlarida (universitet va institutlar ta'lim muassasalarida) amalga oshiriladi. Oliy ta'lim ikki bosqichga: Bakalavriat bosqichi–mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'limdir. Magistratura bosqichi–aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida ta'lim muddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir.

Namangan viloyatida oliy ta'lim tizimida 3 ta oliy ta'lim muassasalari mavjud bo'lib, ularning tarkibida 1 ta universitet va 2 ta institutlar faoliyat yuritmoqda.






2019-2020 o'quv yilida oliy ta'lim muassasalariga qabul qilingan talabalarning taqsimlanishi, kishi



Oliy ta'lim bakalavriat bosqichining asosiy ko'rsatkichlari

2019- yilda bakalavr darajasiga ega bo'lgan talabalar soni 6042 nafarni tashkil etib, ularning 998 nafari davlat grantlari asosida ta'lim olgan. 2019- yilda bakalavriat bosqichini bitirganlarning 1 173 nafari qizlar (37,6 %) tashkil etgan. 2020- yilda bakalavriatni 3918 nafar talaba bitirishi kutilmoqda, ularning 842 nafari (21,4 %) davlat granti asosida tahsil olayotgan talabalarni tashkil qiladi.

2019-2020 o'quv yili boshiga oliy ta'lim muassasalarida jami 20 109 nafar talaba tahsil olmoqda, ulardan 9898 nafari qizlar tashkil etadi. Talabalarning 15,0 % i davlat grantlari asosida, 85,0 % i to'lov-shartnoma asosida tahsil olmoqda.



Oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichiga talabalar qabuli

2019-2020 o'quv yili uchun magistraturaga jami 289 nafar talaba qabul qilingan. Talabalardan, 39,7 % i (115 nafari) davlat granti asosida, 60,3 % i (174 nafari) to'lov shartnoma asosida qabul qilingan.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talabalarning jinsi bo'yicha taqsimlanishi


2019-2020 o'quv yili boshida oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarning jinsi bo'yicha taqsimlanishida qizlarning ulushini yuqoriligi bo'yicha Viloyatda 49,2 %, ni tashkil etmoqda, o'g'il bola talabalar ulushining yuqoriligi bo'yicha 50,8 %, ni tashkil etgan.



2019-2020 o‘quv yili boshida talabalarning ta’lim turlari bo‘yicha taqsimlanishi



Mamlakatimizning barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar ta’limning barcha bo‘g‘ini, ayniqsa oliy ta’lim tizimida yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Bu jihatlar ta’lim sifatini tubdan takomillashtirish oliy ta’lim muassasalarida yoshlarning qamrovini tobora oshirish kabilarda o‘zining yorqin ifodasini topmoqda. Namangan viloyati bo‘yicha 3 ta oliy ta’lim muassasalarida jami 20109 nafar talabadan 15549 nafari (77,3 %) kunduzgi ta’lim shaklida, 4151 nafari (20,6 %) sirtqi ta’lim shakli, 409 nafari (2,0 %) kechki ta’lim shakli bo‘yicha tahsil olmoqda.



Oliy ta'lim muassasalari talabalarining yoshi bo'yicha taqsimlanishi

(2019-2020 o'quv yili boshida)

	Jami	Shu jumladan:								
		17 yosh va undan kichik	18 yosh	19 yosh	20 yosh	21 yosh	22 yosh	23 yosh	24 yosh	25 yosh va undan katta
Namangan	20109	105	642	1706	1998	2046	1815	1696	1575	8526

Yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olinishini yanada kuchaytirish, oliy ta'lim muassasalari orasida sog'lom raqobatni kuchaytirish asosiy vazifa hisoblanadi. Namangan viloyat bo'yicha oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan 17 yosh va undan kichik talabalar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Namangan davlat universitet qayd etilgan bo'lsa. Shuningdek, 25 yosh va undan katta talabalar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Namangan muhandislik-texnologiya institut to'g'ri kelgan.



Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat bosqichiga qabul natijalari

(2019-2020 o'quv yili uchun)

	Ta'limning barcha turlari			Kunduzgi ta'lim shakli		
	Topshirilgan arizalar	Qabul qilindi	Konkurs, kishi/100 o'ringa	Topshirilgan arizalar	Qabul qilindi	Konkurs, kishi/100 o'ringa
Namangan	59664	6042	988	39479	4585	861

(davomi)

	Sirtqi ta'lim shakli			Kechki ta'lim shakli		
	Topshirilgan arizalar	Qabul qilindi	Konkurs, kishi/100 o'ringa	Topshirilgan arizalar	Qabul qilindi	Konkurs, kishi/100 o'ringa
Namangan	18474	1208	1529	1711	249	687



2019-2020 o'quv yili boshida Namangan viloyatida oliy ta'lim muassasalarida ta'limning barcha turlari bo'yicha bakalavriat bosqichiga jami abuturentlar tomonidan 59664 mingta ariza topshirilgan.

2019-2020 o‘quv yili boshida Namangan viloyatida oliy ta‘lim muassasalarida jami 1131 nafar professor-o‘qituvchilar (o‘rindoshlarsiz) tashkil etadi.



Viloyatda bitta o‘qituvchiga to‘g‘ri keladigan talabalar soni, kishi *(2019-2020 o‘quv yili boshida)*

2019-2020 o‘quv yili boshiga Namangan viloyatida oliy ta‘lim muassasalarida bitta o‘qituvchiga o‘rtacha 18 nafar talaba to‘g‘ri keladi.



Ijtimoiy soha statistikasi bo‘limi

69-227-84-94